



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI



**2023-YIL YANVAR-IYUN OYLARI
BO'YICHA QISHLOQ XO'JALIGINING ASOSIY
IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI**




YALPI ICHKI MAHSULOT TARKIBIDA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGINING O'RNI


2023-yilning yanvar-iyun oylarida mamlakatimiz **yalpi ichki mahsuloti 469,6 trln so'mni**, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish **105,6 foizni** tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulot hajmi **40,5 mlrd AQSh dollari** ekvivalentiga teng bo'ldi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **89 trln so'mni** yoki **7,7 mlrd dollarni** tashkil etdi.

Yalpi ichki mahsulotdagi qo'shilgan qiymati ulushi esa **20,1 foiz** darajada bo'ldi.



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati, o'sish sur'ati, YAIMdagi ulushi



QISHLOQ O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMLARI DINAMIKASI


2023-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **154,5 trln so‘mni** tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **103,8 foizga** o‘shirildi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning AQSh dollaridagi ekvivalenti **13 mlrd dollarni** tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **22,7 trln so‘mlik (1,9 mlrd doll)** ko‘p mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi aholi jon boshiga **3,8 mln so‘mni** tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan (**3,7 mln so‘m**) **2,1 foizga** oshdi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va aholi jon boshiga o‘shishi




QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ HO‘JALIGIDA MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISH HAJMI

Qishloq xo‘jaligida xizmat ko‘rsatish va ovchilikda **1,5 trln so‘m**, o‘rmon xo‘jaligida **3,8 trln so‘m** va baliq xo‘jaligida **976,6 mlrd so‘m**, dehqonchilik mahsulotlari **58,9 trln so‘m**, chorvachilik mahsulotlari **89,2 trln so‘m** ishlab chiqarilgan.

Tarmoqlar bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining yuqori ulushi chorvachilikka to‘g‘ri keladi - **57,7 foiz**. Dehqonchilikda - **38,2 foiz**, o‘rmon xo‘jaligida - **2,5 foiz**, qishloq xo‘jaligida xizmat ko‘rsatish va ovchilikda - **0,9 foiz**, baliq xo‘jaligida **0,6 foizni** tashkil etdi.

■ 2022-yil yanvar-iyun mlrd so‘m


■ 2023-yil yanvar-iyun mlrd so‘m



HUDUDLAR BO'YICHA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARNING HAJMI

2023-yil **yanvar-iyun** oylarida hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larning eng yuqori hajmi **Samarqand** (*16,6 trln so'm*), **Farg'ona** (*16,1 trln so'm*) va **Toshkent** (*15,6 trln so'm*) viloyatlarida qayd etildi. Eng kam hajmi **Qoraqalpog'iston Respublikasi** (*4,4 trln so'm*), **Sirdaryo** (*5,0 trln so'm*), **Navoiy** (*7,1 trln so'm*) viloyatlariga to'g'ri keldi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, trln so'm




■ 2022-yil yanvar-iyun, trln so'm

■ 2023-yil yanvar-iyun, trln so'm

HUDUDLAR BO'YICHA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARNING ULUSHI DINAMIKASI

2023-yil **yanvar-iyun** oylarida hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan qishloq, o'rmon baliq xo'jaligi mahsulotlarini ulushining o'sish sur'ati **Surxondaryo** (105,6 %), **Samarqand** (103,1 %) va **Jizzax** (101,4 %) viloyatlarida qayd etildi. **Toshkent** (-5,3 foiz), **Andijon** (-2,8 foiz), **Namangan** (-1,8 foiz) viloyatlarida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushida pasayish kuzatildi.

Hududlarning yalpi ulushi va o'sish sur'atlari, %




QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINING O‘SISH SUR‘ATLARI

Hududlar bo‘yicha yuqori o‘shish ko‘rsatkichlari **Xorazmda—106,4 foiz**, **Namanganda—105,5 foiz**, **Sirdaryoda—105,4 foiz**, **Farg‘onada—104,5 foiz**, **Samarqandda—104,2 foiz**, **Buxoroda—104,2 foiz**ni tashkil etdi.

Xorazm viloyatida yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashga don (116,6%), sabzavot (106,4%), go‘sh (109,1%) mahsulotlarini o‘shishi asos bo‘ldi.

Namanganda uzum (115,4%), mol va parranda go‘sh (108,5%), baliq (182,0%), **Sirdaryoda** sabzavot (104,4%) meva va rezavorlar (107,9%), sut (104,7%), baliq (119,1%), **Farg‘onada** kartoshka (104,0%), meva va rezavorlar (110,0%), **Samarqandda** don (117,0%), kartoshka (107,7%), tuxum (107,4%), **Buxoroda** don (110,9%), sabzavot (104,2%), uzum (112,7%) ishlab chiqarish hajmining o‘shishi hisobiga ta‘minlangan.

Hududlar bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘atlari, (%)



■ Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi

■ Dehqonchilik

■ Chorvachilik

2023-yil birinchi yarim yilligida dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari dinamikasi

DON

5443 ming tn **107,3%**



SABZAVOT

3 300 ming tn **102,3%**



KARTOSHKA

1 670 ming tn **103,3%**



MEVA

1 020 ming tn **105%**




POLIZ

243 ming tn **105,8%**



UZUM

49 ming tn **102,7%**



2023 yil yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliq hajmlari dinamikasi

2023-yilning 1-yarim yilida **1,3 mln tonna** go'sht yetishtirilgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda **3,8 %**ga oshgan. Hududlar bo'yicha go'sht yetishtirish hajmi **Toshkent viloyatida 153,3 ming tonna**, **Qashqadaryo viloyatida 146,5 ming tonna**, **Samarqand viloyatida 145,1 ming tonna**, **Buxoro viloyatida 134 ming tonna**, **Xorazm viloyatida 97,2 ming tonnani** tashkil etdi.

GO'SHT

1 267
ming tn **103,8%**



SUT

5 288
ming tn **102,9%**



TUXUM

3 571
ming tn **104,5%**




BALIQ





46
ming tn **111,6%**



Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi,
ming tonna/mln dona




2023-yil yanvar-iyun oylarida chorva mollari va parrandalar bosh soni

	2022-yanvar-iyun	2023-yanvar-iyun	Ўсиш, %
 Yirik shoxli qoramollar mln bosh	13,2	13,5	2,3%
 Sigirlar mln bosh	4,7	4,8	2,1%
 Qo'y va echkilar mln bosh	22,9	23,4	2,2%
 Parrandalar mln bosh	87,1	94,2	8,2%

2023-yilning 1-iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni **13 505,5 ming boshga** yetdi, (2022-yilning mos davriga nisbatan **2,0 %** ga ko'p), sigirlar **4 782,6 ming bosh** (**1,9 %** ga ko'p), qo'y va echkilar **23 441,9 ming bosh** (**2,4 %** ga ko'p), parrandalar **94 170,8 ming boshga** (**8,1 %** ga ko'p) yetdi. Eng ko'p yirik shoxli qoramollar soni Qashqadaryoda (**1688,3 ming bosh**), Samarqandda (**1619,3 ming bosh**), Buxoroda (**1309,3 ming bosh**) qayd etilgan. Chorva hayvonlari va parrandalarning **91,5 foizi** dehqon xo'jaliklari toifasi, **6,9 foizi** fermer xo'jaliklari, **1,6 foizi** qishloq xo'jaligi korxonalari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Chorva xayvonlari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %




■ Fermer xo'jaliklari

■ Dehqon xo'jaliklari

■ Qishloq xo'jaligi korxonalari


2023-YANVAR-IYUN OYLARIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA OZIQ-OVQAT SANOATI SOHALARIDA AMALGA OSHIRILGAN INVESTITSIYA LOYIHALARI BO'YICHA



Joriy yilning **1-yarim yilligida** qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati sohalarida jami **3 378 mlrd so'm** shundan, meva-sabzavotchilik yo'nalishida **780,3 mlrd so'mlik**, oziq-ovqat sanoati sohasida **1 090,1 mlrd so'mlik**, chorvachilikda **1 002,3 mlrd so'm**, boshqa qishloq xo'jaligi sohalarida **505,0 mlrd so'mlik** mablag' o'zlashtirildi.

Mazkur davrda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati sohalarida amalga oshirilgan investitsiya loyihalari doirasida **7 984 ta** ish o'zni yaratildi.


O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALARNING HAJMI VA TARKIBI, MLRD SO'M/%



2023-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlari



Joriy yil **yanvar-iyun oylarida** jami **1,9 milliondan** ortiq (rejaga nisbatan **122,3%**) ish o'rinlari yaratilib, aholining doimiy va mavsumiy bandligi ta'minlandi. Jumladan, klasterlarda **45,9 ming**, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarida **118,1 ming**, takroriy ekinga yer ajratish hisobiga **141,1 ming**, tomorqada **139,1 ming**, pillachilikda **648,1 ming** hamda suv va o'rmon xo'jaliklarida **8,2 ming** nafar fuqarolar band qilindi. **2023-yil yanvar-iyun oylarida** hududlar bo'yicha yaratilgan ish o'rinlarining eng yuqori hajmi **Andijon (276,8 ming ta)**, **Farg'ona (257,3 ming ta)**, **Namangan (224,5 ming ta)**, **Surxondaryo (186,4 ming ta)**, **Qashqadaryo (183,1 ming ta)** viloyatlarida qayd etildi.




Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari import va eksport hajmlari

2019-2023 yillarning yanvar-iyun oylarida amalga oshirilgan import va eksport ko'rsatkichlari




Bug'doy (ming tonna)




■ Import ■ Eksport




Un (ming tonna)



■ Import ■ Eksport




Guruch (ming tonna)



■ Import ■ Eksport



O'simlik yog'i (ming tonna)




■ Import ■ Eksport

Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari import va eksport hajmlari

2019-2023 yillarning yanvar-iyun oylarida amalga oshirilgan import va eksport ko'rsatkichlari



Kartoshka (ming tonna)



Piyoz (ming tonna)



Go'sht importi hajmlari (ming tonna)

